
OLIIY TA'LIM INGLIZ TILI DARSLARIDA SUN'IY INTELEKTDAN FOYDALANISH METODIKASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida chet tillariga berilgan katta ahamiyat hamda ularni o'rganish uchun zarur bo'lgan innovatsion texnologiyalar yoritilgan bo'lib, asosan jahonda tilga e'tibor rivojlanib borayotgan hozirgi davrda oliy ta'lim tizimimizga sun'iy intellektni olib kirish zarurligi borasida so'z boradi. Maqolada til o'rganish bilini, ko'nikma, malakalarini rivojlantirishning nazariy jihatlarini bayon etilgan. Muammo misollar orqali tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu maqolada ingliz tili orqali talabalarga ta'lim-tarbiya berish jarayoni va usullari, ingliz tilini o'rgatish ilmi, o'qituvchi va talaba faoliyatini o'rganish metodi, jumladan chet tilini o'qitish metodikasi haqida, chet tilini o'qitish metodikasida qo'llanilayotgan zamonaviy axborot texnologiyalari, shuningdek, sun'iy intellekt yordamida ingliz tilini o'qitish va o'rgatish metodikasining lingvistik asoslari, ingliz tili o'quv fanining xususiyatlari, turlari va ulardan foydalanish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: chet tili, o'yin, innovatsion texnologiya, texnologik vositalar, usullar, metodlar, sun'iy intellekt, AL ta'lim, JavaScript, abacus, Google Home, universitet, uzluksiz ta'lim, ta'lim jarayoni, sektor, xorijiy til, mavzu, usul, matn, izohli lug'at, mashqlar, ko'nikma, metodika, innovatsiya, chet tili, kommunikatsiya, ko'nikma, malaka, didaktika, ingliz tili, o'qitish metodikasi, lingvistik asos, psixolingvistik asos.

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИИ НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье подчеркивается большое значение, придаваемое иностранным языкам, в том числе английскому, в Республике Узбекистан, а также инновационным технологиям, необходимым для их изучения, идет речь о необходимости привлечения интеллекта. В статье описаны теоретические аспекты развития навыков изучения языка с использованием педагогических технологий. Проблема анализируется на примерах. Также в данной статье рассмотрен процесс и методы обучения посредством английского языка, наука преподавания английского языка, метод изучения деятельности преподавателей и учащихся, в том числе методика преподавания английского языка, а также современные информационные технологии, используемые в ней, а также лингвистические основы методики преподавания и изучения английского языка с помощью искусственного интеллекта, а также характеристики, виды и эффективное использование предмета преподавания английского языка.

Ключевые слова: английский язык, игра, инновационные технологии, технологические инструменты, методы, методы, искусственный интеллект, AL образование, JavaScript, счеты, Google Home, университет, непрерывное образование, учебный процесс, сектор, иностранный язык, метод, текст, толковый словарь, упражнения, знания, умения, компетентность, методика, новаторство, иностранный язык, общение, дидактика, методика преподавания, лингвистическая основа, психолингвистическая основа, педагогический подход.

METHODOLOGY FOR USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN HIGHER EDUCATION ENGLISH LESSONS

Annotation. This article emphasizes the great importance attached to foreign languages, including English, in the Republic of Uzbekistan, as well as the innovative technologies necessary

for their study, and talks about the need to attract intelligence. The article describes the theoretical aspects of developing language learning skills using pedagogical technologies. The problem is analyzed using examples. This article also discusses the process and methods of teaching through the English language, the science of teaching English, the method of studying the activities of teachers and students, including the methodology of teaching English, as well as modern information technologies used in it. as well as the linguistic foundations of the methodology of teaching and learning English using artificial intelligence, as well as the characteristics, types and effective use of the subject of teaching English.

Keywords: English language, game, innovative technologies, technological tools, methods, methods, artificial intelligence, AL education, JavaScript, abacus, Google Home, university, continuing education, educational process, sector, foreign language, method, text, explanatory dictionary, exercises, knowledge, skills, competence, methodology, innovation, foreign language, communication, didactics, teaching methods, linguistic basis, psycholinguistic basis, pedagogical approach.

Kirish. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ko'nikmasi professionl ta'limning ajralmas qismlaridan biri bo'lib bormoqda. Turli sohalardagi mutaxassislarda chet ellik hamkorlar bilan hamkorlik qilish ko'rsatkichi yuqori bo'lganligi sababli, ularda til o'rganishga bo'lgan talab yuqoridir, shundan kelib chiqqan holda jahonda chet tillari kasbiy ta'limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bunday bilimlarni insonlar dastlab maktab, kollej, litsey, keyinchalik institutlarda, universitetlarda, o'quv kurslarida, yoki mustaqil ravishda xorijiy tilni o'rganishga yordam beruvchi asosiy ma'lumot to'plamlari bilan tanishgan holda o'rganadilar. Bugungi kunda turli darajadagi til bilimiga ega kishilar uchun o'quv materiallarining katta to'plamlari mavjud.

Asosiy qism. Butun dunyo talabiga asosan, jamiyatimiz rivojlanishi va raqobatbardosh rivojlangan mamlakatlar orasida ko'zga tashlanib ravnaq topishi uchun, Vatanimizda, qolaversa oliy ta'lim tizimida chet tillarini o'rgatishga qiziqish oshdi hamda bu maqsadni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun yurtimizda yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratib berildi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, "Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyati o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatlarimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir". Ushbu fikrlarning mantiqiy davomi sifatida 2012 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini" o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori chet tillarini o'rganish imkoniyatlarini kengaytirdi [Xalq ta'lim vazirligining ilmiy metodik jurnali, 2019. 53-bet.]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2024-yil 2-fevraldagi PQ-53-son qaroriga asosan "Fanlarni chuqurlashtirib o'qitish" yo'nalishi doirasida xorijiy til fani bo'yicha o'quv reja va dasturlarni takomillashtirishi vazifa qilib belgilanganligi bejiz emas.

Shundan ko'rinib turibiki, bugungi kunga kelib chet tiliga bo'lgan talab judayam ortib bormoqda va xorijiy tillarni o'rganish nafaqat har bir talaba, balkim vatandoshlarimizning fuqarolik burchiga aylanib borayapti desam mubolag'a bo'lmaydi. Horijiy tillarni bizni sharoitimizda o'rganishga yordam beruvchi innnovatsion texnologiyalardan bo'lmish sun'iy intellektidan samarali foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib hisoblanadi. Shning uchun biz ishimiz mavzusini "Sun'iy intellektidan oliy ta'lim ingliz tili darslarida foydalanish metodikasi" borasida tadqiqotimizni olib bordik.

Oxirgi 10 yillikda sun'iy intellektning ta'limdagi o'rni oshib ko'p e'tiborni o'ziga tortib bormoqda. Ko'pchilik izlanuvchilar e'tiborlarini bu yangi texnologiya taqdim etayotgan imkoniyatlar va u yechim bera olmayotgan muammolarni o'rganishga qaratmoqda. Chunki ta'limda sun'iy intellektidan foydalanish darslarni anchagina shaxsga yo'naltirilgan qiziqarli, interaktiv va samarali qilib bormoqda. Ayniqsa, shaxsga yo'naltirilgan darslar o'quvchilarning o'rganish jarayonini tezlashtirib, ular o'rganish jarayonida duch keladigan ehtimoliy stresslarni

kamaytirmoqda. Bundan tashqari sun'iy intellekt o'quvchilarni tezda erishib bo'ladigan fikr mulohaza bilan va bunga qo'shimcha tarzda har bir individga mos keladigan taxminiy yo'l yo'riq bilan ta'minlayapti.

Sun'iy intellekt — informatikaning alohida sohasi bo'lib, odatda inson ongi bilan bog'liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o'rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug'ullanadi. Sun'iy intellekt kompyuterlarga o'zlarining tajribalarini o'rganish, berilgan parametrlarga moslashish va ilgari faqat odamlar uchun mumkin bo'lgan vazifalarni bajarish imkonini beradi. Sun'iy intellektni amalga oshirishning ko'p holatlarida – kompyuter shaxmatchilaridan tortib uchuvchisiz transport vositalarigacha – chuqur o'rganish va tabiiy tillarni qayta ishlash imkoniyati juda muhimdir. Ushbu texnologiyalar tufayli kompyuterlarga katta miqdordagi ma'lumotlarni qayta ishlash va ulardagi naqshlarni aniqlash orqali muayyan vazifalarni bajarishga xorijiy tillarni, jumladan ingliz tilini talabalarga oson "o'rgatish" mumkin.

Muhokama va natijalar. Hozirgi vatqda nafaqat chet tiliga o'qitish bo'yicha balki barcha fanlarga o'qitishni, o'rgatishni yangi-yangi metodlarini izlab topish va uni amalda sinab ko'rish to'g'risida ko'p ishlar qilinayapti. Bu hozirgi kundagi ta'lim tarbiya jarayonini yaxshilash, uchun hal qilinishi kerak bo'lgan eng muhim muammolardan biridir. Agar avval chet tilini, jumladan ingliz tilini o'qitish shu til sistemasini o'rganish deb qaralgan bo'lsa, keyingi yillarda o'qitishdagi muhim ko'zlangan narsa bu o'quvchi-talabalarni o'rganayotgan ingliz tili nutqini o'stirishdan iborat bo'ldi. Shuni aytish kerakki ingliz til o'rganishdagi bu maqsadlar, o'z-o'zidan, yoki boshqa kimsalar, yoki shaxs tomonidan qo'yilmaydi, balki lingvistika, psixologiya-pedagogika va zamonaviy innovatsion texnologiyalari fanlaridagi o'zgarishlar hamda jamiyatning ijtimoiy rivojlanib borishi bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan: Audiolingval metodni olib ko'raylik. Bu metodning yuzaga kelishiga lingvistika fanidagi o'zgarishlar, ya'ni struktural oqimni ta'siri bo'ldi. U quyidagi omillarni o'z ichiga oladi:

- ingliz tilini o'rgatish avval og'zaki nutqqa o'rgatishdan boshlanmog'i zarur;
- til o'rganish turli strukturalar, nutq na'munalari asosida amalga oshiriladi;
- mashqlar ham tilga asoslangan holda til materialini ko'p marta takrorlashni talab qiluvchi mashqlar bo'lishi kerakligini taqozo etadi;
- grammanik namunalar va leksikani tanlash chet tili bilan ona tilini qiyoslashning natijalariga bog'liq bo'lishi kerak;
- talaffuzga katta e'tibor talab etiladi;
- ingliz tilini o'rgatish va o'rganishda psixologik motivatsiya hamda pedagogik metodologiya zarur bo'ladi;
- ingliz tilini o'rgatish va o'rganishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan, ya'ni sun'iy intellekdan oqilona foydalanish kerak.

Bu metod asoschilari metodist olimlar lardir bo'lib, biz bu metodga jahon standartlari talablaridan va ilmiy ishimiz mavzusidan kelib chiqqan holda bu metodni takomillashtirib oxirgi ikki punktini qo'shimcha qilib kiritdik. Chunki Ch.Friz va R.Lado metodlarining asosiy kamchiligi, mexanik mashqlarning ko'pligi va haqiqiy nutq mashqlarining ozligi bo'lib, unga pedagogik-psixologik va zamonaviy sun'iy intellekt o'rgatish-o'rganish metodlarini qo'lladik. Masalan: Ch.Friz: boshlang'ich etapning asosiy mazmuni strukturalarni o'rganishni tashkil qilishi kerak deydi. Grammatikaning ko'nikmalarni hosil qilish ham shunga asoslangan bo'lishi maqsadga muvofiq. Biz esa o'z navbatida on'line o'rganish va o'rgatish metodlaridan sun'iy intellektni qo'llaganimizda yanada ingliz tilini o'rganish tez va samarador bo'lishini tadqiqotimizda kuzatdik.

Ushbu maqsadga yetishishda muvaffaqiyatga erishish, o'qituvchilarning amaliy uslublari va malakasiga bog'liq. Ma'lumki, ingliz tili tabiiy sharoitda muvaffaqiyatli o'zlashtiriladi. Geografik jihatdan olisda joylashgan va til sohibi bilan muloqatda bo'lish imkoniyati mavjud bo'lmagan ta'lim sharoitidagi ingliz tili o'rganish jarayonida amaliy maqsadga erishish murakkablashadi. Aynan shu vaziyat ingliz tili o'quv predmetini o'qitishda qator qiyinchiliklarga sabab bo'ladi. Shu sababdan o'quv jarayonini tabiiy muhitga yaqitlashtirish, darslarda tabiiy nutq vaziyatlarini yaratish yuzasidan izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday

ta'limning sifati va samaradorligi maqsadning belgilanishidagi aniqlik darajasiga bog'liq. Ingliz tili o'qitishda amaliy (ustuvor), umumta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar e'tirof etilgan. Mamlakatimizda ta'limning barcha bosqichlarida ingliz tili o'qitishning asosiy maqsadi o'rganuvchilarning ko'p madaniyatli dunyoda kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdan iborat. Rivojlangan demokratik davlatlarda to'plangan tajribalar va ayni paytda shiddat bilan o'zgarib borayotgan hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib, mamlakatimizda ingliz tili kommunikativ faoliyat ko'rsatish, shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyani egallashga mo'ljallangan integrativ yondashuv asosida o'rgatiladi. Axborot texnologiyalari va zamonaviy o'qitish usullaridan, ta'lim jarayonida sun'iy intellektdan foydalanish qobiliyati yangi materiallarni tezkor tushunishga yordam beradi. Turli usullarni birlashtirib o'qituvchi muayyan ta'lim dasturlarini yechishga qodir bo'ladi. Shu munosabat bilan o'qituvchilar va talabalar xorijiy tillarni, jumladan ingliz tillarini o'qitishning zamonaviy usullari bilan tanishishlari kerak. Natijada maqsadlariga erishish uchun eng samarali usullarni tanlay bilish natijasida bilim, ko'nikma va malakalari shakllanadi. Bunda o'qitish va o'rganishning bir necha metodlaridan foydalanish samarali natija beradi. O'qitish kichik bosqichlarda amalga oshiriladi va o'quvchi-talabaning mavjud bilim tizimiga asoslanadi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, chet tillarini o'rgatishga qiziqish oshdi va yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratib berildi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, "Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham albatta, bejiz emas. Til o'zlashtirish jaryoni ongli va beixtiyor harakatlar umumlashmasida kechishi aniq, lekin bu harakatlarni ta'minlovchi mexanizmlarning «ishga tushishi» til o'rganishga qanday sharoitda, necha yoshda kirishilayotgani bilan bog'liq.

Respublikamizda chet tilining o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR)ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tili, qolaversa ingliz tilini o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Shundan kelib chiqqan holda oliy ta'lim tizimida ingliz tili fani to'rt aspectga (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapirishga) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha, bilim, ko'nikma va malakalar berilmoqda. Ta'lim texnologiyalari, bu pedagogik metodlardan foydalangan holda ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari, ya'ni innovatsion sun'iy intellektdan unumli foydalanish hamdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini, jumladan sun'iy intellektni olib kirish orqali ingliz tilini o'rganish darajasi jihatidan ta'lim sifati, tez va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, ingliz tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan, innovatsion sun'iy intellekt tizimidan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy texnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish ingliz tili o'rganishning har bir aspectida (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapirishida) qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD disklersiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas, shu bilan birga agar bu jarayonni oson va qiziqarli hamda tez amalga oshirishni istovchi talabalar uchun beqiyos imkoniyat va yuqori samaradan iborat bo'ladi. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda talaba bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi, buni esa innovatsion texnologiyalardan bo'lmish sun'iy intellekt osonlashtiradi va vaqtini tejaydi. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda talabalar ham axborot-kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Ingliz tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan:

– kompyuterlardan foydalanganda talaba ingliz tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino, yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin;

– ingliz tilidagi radio eshittirishlar va televideniadagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin;

- ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va kassetalardan foydalanish;
- CD pleyerlardan foydalanish mumkin;
- zamonaviy texnologiyalardan bo'lmish innovatsion sun'iy intellektdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bu texnik vositalardan foydalanish talabalarning ingliz tilini o'rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi [1]. Bugungi kunda oliy tal'lim tizimida interfaol o'yinlar orqali dars o'tish an'anaga aylanib bormoqda. Ma'lumki, darsning turli xil o'yinlar asosida o'tilishi talabalarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko'nikmalarini oshirish va malakali, mahoratli hamda olgan bilimlarini kuchli bo'lishini ta'minlaydi. O'yin texnologiyasidan foydalanishning asosini talabani faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Pedagoglarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik-pedagogik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda barqaror o'rni topish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday o'yin zamirida umumiy qabul qilingan ta'lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O'quv o'yinlariga o'quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O'yinlar jarayonida talaba oddiy darsga qaraganda bu mashg'ulotga qiziqibroq yondashadi va bimalol faoliyat ko'rsatadi. Ta'kidlash lozimki, o'yin eng avvalo, o'qitishning bir usulidir. Talabalar o'yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g'alaba qozonishga intiladilar, o'qituvchi ular orqali talabaga ta'lim-tarbiya ham beradi. Talaba inglizcha o'yin o'ynab, gapira olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yoza olarkanman, deb ishonadi va tilmo'rganishga qiziqadi [2].

Biz bilamizki, hozirgi ta'lim jarayonida talaba sub'ekt bo'lishi lozim. Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Ingliz tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdir, albatta bu holatda talaba subyektdan obyektga aylanadi, pedagogik metodlardan foydalanib til o'rgatishni nozik tomoni ham shundaki, talaba o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi va erkin fikrlay boshlaydi, shu bilan birga ingliz tilini o'rganishi samarali bo'ladi. Bugungi kunda ingliz tili o'qituvchilari Amerika Qo'shma Statlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelishmoqda:

- "Muammoli vaziyat yechimi" (Creative Problem Solving) bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanishi o'qib beriladi qanday yakun topishi talabalar hukmiga havola qilinadi;
- "Quvnoq topishmoqlar" (Merry Riddles) talkbalarga topishmoqlar o'rgatish Ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar;
- "Tezkor javob" (Quick answers) o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi;
- "Chigil yozdi" ("Warm-up exercises") talabalarni darsga qiziqitirish uchun auditoriyada har xil o'yinlardan foydalanish [3];
- "Pantomima" (pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo'lgan darsda, yoki yozma mashqlar bajarilib, talabalar charchagan paytda foydalanilsa bo'ladi;
- "Hikoya zanjiri" (a chain story) usuli talabalarning og'zaki nutqini o'stirishda yordam beradi;
- "Rolli o'yinlar" (Acting characters) bu usul darsning barcha tiplarida qo'llanilishi mumkin. Hunarga o'rgatish uchun "Interpreter", "Translator", "Writer", "Poet" kabi kasbdagi kishilar darsda ishtirok etishib talabalar bilan suhbatlashishlari mumkin;
- "Allomalar yig'ini" (Thinkers meeting) U.Shekspir, A.Navoiy, R.Burns kabi shoirlar va yozuvchilarni rolini o'ynaydigan ingliz tilida gapiradigan aktyorlarni "taklif qilish" mumkin. Bunday paytda ular aytib ketgan hikmatli so'zlardan darsda foydalanish yoshlarni komil inson bo'lib tarbiyalanishiga yordam beradi;
- "Rasmlar so'zlaganda" (When pictures speak) usuli ancha qulay bo'lib, ingliz tilini o'rgatishda, talabalarning og'zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim;

– Kviz kartochkalari (quiz cards) talabalarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma talabalar bir vaqtda darsda ishtirok etish imkonini beradi bu esa vaqtni tejaydi [4].

Ko'rib chiqanimizdek, har bir yangi pedagogik texnologiyalar va zamonaviy innovatsion texnologiyalar, jumladan sun'iy intellekt o'ziga xos afzallik jihatlari egadir. Bunday usullarning barchasida o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlik, talabaning ta'lim jarayonidagi faol harakati ko'zda tutiladi [5].

Ingliz til o'rganish ko'p qirrali ta'limot bo'lib, bu jarayonda inson murakkab psixologik, pedagogik, motivatsion o'zgarishlarni boshdan kechiradi. Jumladan ona tili bilan ingliz tilini taqqoslash jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayonda yuqori samaradorlikka erishish uchun o'qituvchi o'rgatishning turli metod va texnologiyalaridan mahorat bilan foydalanishi lozim bo'ladi. Va faqat shu holdagina zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida ingliz til bilan ona tilini taqqoslab o'rgatish samarali natija beradi. Ingliz til o'rgatish uning metodikasiga oid bilimlarga ega bo'lishni taqozo etadi. Metodika va texnologiyalar chet til o'rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Darsni tashkil qilishda metodika fanining turli usullari mavjud. Ingliz til o'qitish metodikasida keng qo'llaniladigan metodlar: kommunikativ didaktika metodi, madaniyatlararo muloqotni tashkil qilish metodi va mashqni tashkil qilish metodi hisoblanadi.

Zamonaviy jamiyatda ingliz tillari kasbiy ta'limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Turli sohalaridagi mutaxassislarda chet ellik hamkorlar bilan hamkorlik qilish ko'rsatkichi yuqori bo'lganligi sababli, ularda til o'rganishga bo'lgan talab yuqoridir. Hozirda chet tillari maktab, kollej, litsey, oliy ta'lim muassasalarida o'rgatilmoqda. Turli darajadagi til bilimiga ega bo'lmoqchi bo'lganlar uchun o'quv materiallarning innovatsion turlari mavjud. Ingliz tilini mukammal bilish va ma'lum darajani olish o'qituvchilarning amaliy uslublari va malakasiga ham bog'liq albatta. Axborot texnologiyalari va zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanish qobiliyati yangi materiallarni tezkor tushunishga yordam beradi. Turli usullarni birlashtirib o'qituvchi muayyan ta'lim dasturlarini yechishga qodir bo'ladi. Shu munosabat bilan o'qituvchilar va talabalar xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy usullari bilan tanishishlari kerak. Natijada maqsadlariga erishish uchun eng samarali usullarni tanlay bilish ko'nikmalari shakllanadi. Bunda o'qitish va o'rganishning bir necha metodlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Zamon ilgari lab borgani sari har bir sohada yangilik ko'paymoqda. Chet tilini o'rgatishda o'rganuvchining salohiyat va darajasi yoshidan kelib chiqqan holda bosqichma bosqich o'rgatish yaxshi natija beradi. Bunda talabalar:

1. Boshlang'ich bosqichda o'qitiladi.
2. O'rta bosqichda o'qitiladi.
3. Yuqori bosqichda o'qitish asosida guruhlariga bo'linadi.

Har bir bosqich uchun o'qituvchi tomonidan maxsus faol dastur ishlab chiqiladi. Ta'limning faol usullari nafaqat o'quv jarayonida talabalarni faol fikrlashga va amaliy faoliyatga undashga yordam beradi, balki ijobiy o'qitish motivatsiyasini shakllantirishga, ijodiy qobiliyatlarni ochib berish va rivojlantirishga yordam beradi, o'quv materialini yuqori samaradorlik bilan o'zlashtirishga yordam beradi. Darsning har bir bosqichi uchun nafaqat o'qituvchi, balki talabalar uchun ham samarali bo'lgan faol metodlardan foydalanish kerak. Ularning ba'zilar bilan tanishib chiqishingizni maslahat beraman, deyarli barcha texnikalar harakatchan ekanligini va nafaqat ingliz tili darslarida, balki boshqa o'quv fanlarida ham qo'llanilishi mumkinligini ta'kidlamoqchiman. 1. Tashkiliy bosqich "Karusel" ("Merry Go Round"). Ushbu texnika xayoliy fikrlash, xotiradan foydalanishga imkon beradi. Birinchi talaba o'qituvchidan kartani oladi va shu so'z bilan assotsiatsiyalarni nomlaydi. Karta o'qituvchiga qaytguncha zanjir bo'ylab uzatiladi. Har bir talaba o'z fikrlarini tez sur'atlarda ifoda etish imkoniyatiga ega. Ushbu bosqichda talabalar o'tgan materialni "eslab qolishadi". Gapirish qobiliyatini rivojlantirish uchun dars davomida "Intellektual isinish" tamoyilidan foydalanish mumkin. Qoida tariqasida, bunday mashqlarning leksik tayanchlari doskada, ayniqsa dastlabki bosqichda joylashgan. "Qor to'pi" ning o'sishi ikki yo'nalishda davom etishi mumkin: so'z boyligi ko'payishi va / yoki grammatikaning murakkabligi oshishi bilan. (Masalan: Men kitob o'qishni yaxshi ko'raman. Elektron kitoblarni o'qishni yaxshi ko'raman. Sun'iy intellekt orqali ingliz tilini

o'rganishni yaxshi ko'raman, chunki ulardan foydalanish oson va tez hamda samaralidir.) Signal kartalari bilan ishlash Bu o'tgan materialni kartalar ko'rinishidagi taqdimoti. Ushbu uslub materialni tuzishga, talabalar e'tiborini tiklashga yordam beradi.

Yuqorida keltirilgan mavzumizdan kelib chiqqan holda sun'iy intellekt tushunchasi haqida ma'lumot berib o'tmoqchimiz. Sun'iy intellekt nima?

Sun'iy intellekt — zamonaviy innovatsion informatikaning alohida sohasi bo'lib, odatda inson ongi bilan bog'liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o'rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug'ullanadi. Sun'iy intellekt kompyuterlarga o'zlarining tajribalarini o'rganish, berilgan parametrlarga moslashish va ilgari faqat odamlar uchun mumkin bo'lgan vazifalarni bajarish imkonini beradi. Sun'iy intellektni amalga oshirishning ko'p holatlarida – kompyuter shaxmatchilaridan tortib uchuvchisiz transport vositalarigacha – chuqur o'rganish va tabiiy tillarni qayta ishlash imkoniyati juda muhimdir. Ushbu texnologiyalar tufayli kompyuterlarga katta miqdordagi ma'lumotlarni qayta ishlash va ulardagi naqshlarni aniqlash orqali muayyan vazifalarni bajarishga "o'rgatish" mumkin.

Sun'iy intellektning rivojlanish tarixi. "Sun'iy intellekt" atamasi 1956 yilda paydo bo'lgan, ammo bugungi kunda sun'iy intellekt texnologiyasi ma'lumotlar hajmini ko'paytirish, algoritmlarni takomillashtirish, hisoblash quvvatini va ma'lumotlarni saqlash vositalarini optimallashtirish fonida haqiqiy mashhurlikka erishdi.

O'tgan asrning 50-yillarida boshlangan sun'iy intellekt sohasidagi birinchi tadqiqot muammolarni hal qilish va ramziy hisoblash tizimlarini rivojlantirishga qaratilgan edi. 60-yillarda bu sohada AQSh Mudofaa vazirligi qiziqish uyg'otdi: AQSh harbiylari insonning aqliy faoliyatini simulyatsiya qilish uchun kompyuterlarni o'qitishni boshladi.

Masalan, mudofaa vazirligining Ilg'or tadqiqot loyihalari agentligi (DARPA) 1970-yillarda bir qator virtual ko'cha xaritalarini loyihalarini yakunladi. Va DARPA mutaxassislari Siri, Alexa va Cortana paydo bo'lishidan ancha oldin 2003 yilda aqli shaxsiy yordamchilarni yaratishga muvaffaq bo'lishdi. Ushbu ishlar zamonaviy kompyuterlarda, xususan, qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimlarida va inson imkoniyatlarini kengaytirish uchun ishlab chiqilgan aqli qidiruv tizimlarida qo'llaniladigan avtomatlashtirish va rasmiy mantiqiy tamoyillar uchun asos bo'ldi.

1956 yilda kibernetika asoschilari AQShda "Sun'iy intellekt" loyihasini amalga oshirish imkoniyatlarini muhokama qilish uchun yig'ilishdi. Konferentsiya qatnashchilari orasida Makkarti, Minski, Shannon, Turing va boshqalar bor edi. Dastlab, ushbu tushuncha insonning individual funktsiyalarini bajaradigan mashinalarning xususiyatlariga, masalan, bir tildan boshqasiga tarjima qilish, obyektni tanib olish va maqbul qaror qabul qilishga bag'ishlangan edi.

Mamlakatimizda "Sun'iy intellekt" yo'nalishi qariyb 10 yil kechikish bilan paydo bo'ldi va XX asrning 60-yillarining birinchi yarmidagi kibernetik va bionik bum o'rnini egalladi (qarang: 1-rasm).

Sun'iy intellektning eng faol ishlab chiqilgan usullari va usullari quyida keltirilgan:

- sun'iy neyron tarmoqlari;
- evolyutsion hisoblash;
- loyqa mantiq va loyqa to'plam nazariyasi;
- ekspert tizimlari;
- uyali avtomatika;
- ko'p agent tizimlari.
- ko'p agent tizimlari.



1-rasm. Sun'iy intellekt.

Sun'iy intellektning xususiyatlari:

1. Tajriba darajasi. Mutaxassis tizimi eng yuqori darajadagi tajribani taklif qilishi kerak. Muammoning samaradorligini, aniqligini va xayoliy yechimini ta'minlaydi.

2. O'z vaqtida reaksiya. Foydalanuvchi ekspert tizimi bilan juda oqilona vaqt davomida o'zaro aloqada bo'ladi. Ushbu o'zaro ta'sir o'tkazish vaqti mutaxassis bir xil muammo uchun eng aniq yechimni olish vaqtidan kam bo'lishi kerak.

3. Ishonchlilik. Mutaxassis tizimi yaxshi ishonchliligiga ega bo'lishi kerak. Buning uchun siz hech qanday xato qilmasligingiz kerak.

4. Samarali mexanizm. Ekspert tizimida mavjud bo'lgan bilimlar to'plamini boshqarish uchun samarali mexanizm bo'lishi kerak.

5. Muammolarni hal qilish. Mutaxassis tizim qiyin muammolarni hal qilishi va yechimlarni taqdim etish uchun to'g'ri qaror qabul qilishi kerak.

6. Komponentlar. Bilimlar bazasi. Bu tizimning tajriba doirasiga mos keladigan ma'lumotlarning uyushgan to'plamidir. Inson mutaxassislari bilan suhbatlar va kuzatuvlar orqali bilimlar bazasini tashkil etuvchi faktlar olinishi kerak.

7. Xulosa mexanizmi. Tavsiya, yoki xulosa berish uchun bilimlar bazasidagi faktlarni qoidalar orqali izohlang va baholang. Ushbu bilim If-then ishlab chiqarish qoidalari shaklida ifodalanadi: "Agar shart to'g'ri bo'lsa, unda quyidagi chegirma qilish mumkin."

Afzalligi quyidagilardan iborat:

1. Mavjudligi. Dasturiy ta'minotning seriyali ishlab chiqarilishi tufayli mutaxassis tizimlari har qanday joyda va istalgan vaqtda tayyor.

2. Xavf kamayadi. Kompaniya mutaxassislari tizimini odamlar uchun xavfli bo'lgan muhitda ishlashi mumkin. Ular odamlar ishlashi mumkin bo'lmagan har qanday xavfli muhitda ishlatilishi mumkin.

3. Biznes bo'yicha bilim. Ular kompaniyadagi shaxslarning bilimlaridan farqli o'laroq, tashkiliy bilimlarni rivojlantirish vositasiga aylanishi mumkin.

4. Tushuntirishga javob berishi. Ular qaror qabul qilishlari uchun yetarli tushuntirish bera oladilar, javobni keltirib chiqargan fikrlarni batafsil bayon qiladilar. Ta'lim vositalari sifatida foydalanilganda, ular yangi boshlanuvchilar uchun tezroq o'rganish vositasidir.

5. Tezkor javob. Tez va aniq javoblarni olishga yordam beradi. Mutaxassis tizimi o'z vazifalari ulushini inson mutaxassisiga qaraganda ancha tezroq bajarishi mumkin.

6. Kam xato darajasi. Muvaffaqiyatli ekspert tizimlarining xato darajasi ancha past, ba'zan esa xuddi shu vazifani bajarish uchun inson xatolaridan ancha past.

7. Hissiyotsiz javob. Mutaxassis tizimlar hayajonlanmasdan ishlaydi. Ular zo'riqish, charchash, yoki vahima qo'zg'amaydilar va ular favqulodda vaziyatlarda barqaror ishlashadi.

8. Doimiy bilim. Ekspert tizimi ma'lumotlarning muhim darajasini saqlaydi. Ushbu ma'lumot abadiy davom etadi.

9. Tez prototip yaratish. Mutaxassis tizim yordamida odatda murakkab IT- loyihalar bilan bog'liq bo'lgan oylar, yoki yillarda emas, balki bir necha kun ichida ba'zi qoidalarni kiritish va prototipini ishlab chiqish mumkin.

10. Bir nechta tajribalar. Ekspert tizimi ko'plab malakali mutaxassislarning bilimlarini o'z ichiga olishi va shu bilan murakkab muammolarni hal qilish qobiliyatiga ega bo'lishi uchun tuzilishi mumkin. Bu mutaxassislarning muammolarini hal qilish bo'yicha maslahatchilarga maslahat berish xarajatlarini kamaytiradi. Ular olish qiyin bo'lgan bilim manbalarini olish uchun vosita.

Sun'iy intellektning kamchiliklari:

1. Bilimlarni egallash. Har qanday dasturiy ta'minot uchun ma'lum bir sohadagi mutaxassislarning vaqtini olish har doim ham qiyin, ammo ekspert tizimlari uchun bu juda qiyin, chunki mutaxassislar juda qadrlanadi va tashkilotlar tomonidan doimiy ravishda talab qilinadi. Natijada, so'nggi yillarda olib borilgan ko'plab tadqiqotlar mutaxassislar tomonidan belgilangan qoidalarni loyihalash, disk raskadrovka va saqlash jarayonini avtomatlashtirishga yordam beradigan bilimlarni egallash vositalariga qaratilgan.

2. Tizim integratsiyasi. Dastlabki ekspert tizimlari uchun tizimlarning ma'lumotlar bazalari bilan integratsiyasi qiyin kechdi, chunki vositalar asosan korporativ muhitda ma'lum bo'lmagan tillarda va platformalarda bo'lgan. Natijada, ekspert tizimlari vositalarini eski muhit bilan birlashtirish uchun juda ko'p harakatlar amalga oshirildi va standart platformalarga o'tkazildi. Ushbu muammolar asosan paradigma o'zgarishi bilan hal qilindi, chunki kompyuterlar asta-sekin hisoblash muhitida jiddiy biznes tizimlarini rivojlantirishning qonuniy platformasi sifatida qabul qilindi.

Ingliz tili darslarida innovatsion usullar va vositalarni, jumladan yangi pedagogik metodlarni sun'iy intellekt yordamida qo'llash natijasida talabalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar va o'yinlar orqali amalga oshirilsa talabada bilimga ishtiyoq uyg'otadi. Talaba darslarga puxta hozirlik ko'rishga intiladi. Bu esa talabalarni ta'lim jarayonining subyektlariga aylantiradi. Chet tilini o'qitish jarayonida turli xil jadvallardan foydalanishning ham samarasi yuqoridir. Ta'lim jarayonida jadvallardan foydalanib, talabalar ma'lum bir grammatik qoidani, masalan, zamonlardan foydalanib gaplar tuzish, yangi so'zlarni joylashtirib chiqishi mumkin. Ingliz tilini o'rganishga ehtiyoj yuqori bo'lgan bir davrda, ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanish bu jarayonni samarali bo'lishiga olib keladi.

Hozirgi globallashtayotgan dunyoda ta'lim jarayonida olingan bilimlardan faol va o'rinli foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ta'limda va ingliz tilini o'rgatish talabaga ma'lumotni saqlashga va undan ba'zi grammatikaga javob berishni so'rash va ko'p tanlovli test savollarini o'qish orqali natijalarni talab qilishga emas, balki tildan foydalanishga qaratilishi lozim, shunda ular kundalik hayotda nimani anglatishi mumkinligini o'rganadilar. Bizning fikrimizcha, til ta'limi maqsadli tildan foydalanish uchun kompetentsiyaga asoslangan yondashuv va paradigmaga e'tibor qaratishi kerak. Bugungi kunda til o'qitishda mavjud bo'lgan xilma-xillik turli vaqtlarda qo'llanilgan ba'zi usullar va yondashuvlarni ko'rib chiqishni talab

qiladi. Har bir uslub til o'qitishning ma'lum bir rivojlanish davriga to'g'ri kelsa-da, har bir usul o'z navbatida o'z vorisi foydasiga butunlay voz kechgan deb o'ylamaslik kerak. Darhaqiqat, barcha usullar saqlanib qolgan va hali ham ba'zi o'qituvchilar tomonidan dunyoning biron bir joyida qo'llaniladi. Bundan tashqari, metodlar o'qituvchilar va darslik mualliflari tomonidan o'zgartirilgan. Ehtimol, bugungi kunda ko'pchilik ingliz tili o'qituvchilaridan qaysi usuldan foydalanishlari haqida so'rashsa, ular bitta usulga amal qilmasliklarini, aksincha, ular tanlash usullaridan foydalanishlarini aytishadi. Uning eng katta afzalligi shundaki, o'qituvchi bitta usulda qat'iyatli bo'lish ehtimoli kamroq va yangi texnika, innovatsion texnologiyalarga va zamonaviy yondashuvlarga ko'proq e'tibor beradi. "Bugungi kunda til o'rgatishning yagona maqbul yo'li yo'q". Diane Larsen Frimanning yozish, yoki til o'rgatish metodologiyasidan olingan bu iqtibos birlikdan xilma-xillikka bo'lgan asosiy tendentsiyani umumlashtiradi. Har bir yondashuv taklif qiladigan narsaga ega. Bizning vazifamiz ushbu samarali elementlarni aniqlash va ulardan foydalanishdir. Ko'pgina g'oyalarimiz va qarashlarimiz munozarali va ular hali muhokama qilinishi va ishlab chiqilishi kerak. Ammo ingliz tilini o'qitish forumi jurnali muharriri Enn Nyuton aytganidek, "ilmiy yutuqlar aql bovar qilmaydigan narsani o'ylashga tayyorlikdan kelib chiqdi". Mashhur nazariya tarafdorlari uchun jarayon qanchalik og'riqli bo'lib ko'rinmasin, fan shunday rivojlanadi. Til o'qituvchilari til o'qitish samaradorligini oshirish uchun pedagogik amaliyotdagi o'zgarishlarga, innovatsion sun'iy intellektlarga vositachilik qilish mas'uliyatiga ega.

O'qituvchilar bitta usuldan emas, balki tanlov usullaridan foydalanadilar. Bugungi kunda ta'lim berishning yagona maqbul usuli yo'q. Shikoyat qilish, maslahat berish, yoki ma'lumot so'rash kabi vazifani bajarish uchun maqsadli tildan foydalanishga urg'u beriladi. Ushbu funktsiya amalga oshiriladigan ijtimoiy kontekstga ham e'tibor beriladi. Ingliz tilini o'qitishda kommunikativ metod asoschilaridan biri Kristofer Brumfit "Asosiy savol - bu o'qituvchi talabalarga chet tilida muloqot qilishni sinfdan tashqarida o'rgata oladimi"- deb ta'kidladi. Hikoyalardan foydalanish sabablari to'risida bahs yuritsak, bolalar uchun ona tilini o'rganishda hikoyalar juda muhim, har qanday chet tilini o'rganishda ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ingliz tilini o'rgatishda imkon qadar tezroq hikoyalardan foydalanishni boshlash yaxshidir. Ular ingliz tilini o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan bog'lashlari mumkin. Talabalar auditorida hikoyalarni tinglaganlarida, ular ijtimoiy tajriba bilan o'rtoqlashadilar, bu kulgi, qayg'u, hayajon va kutishning umumiy javobini keltirib chiqaradi, bu nafaqat yoqimli, balki bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga va ijtimoiy va hissiy rivojlanishini rag'batlantirishga yordam beradi. Bu hayoliy tajriba talabalarga o'zlarining ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi. Hikoyalar, shuningdek, til o'rganishga hissa qo'shadigan turli xil intellekt turlarini, shu jumladan hissiy intellektni rivojlantiradi. Shuningdek, ular madaniy ma'lumotlarni taqdim etish va madaniyatlararo taqqoslashni rag'batlantirish uchun ideal imkoniyatlarni taqdim etadi. O'qituvchilar uchun hikoyalar optimal kiritish orqali egallashga asoslangan metodologiyadan foydalanishga imkon beradi. Haqiqiy hikoyalar kitoblaridan foydalanish juda yaxshi, chunki ular rang-baranglikni qo'shadi va minisillabuslarni tashkil etuvchi to'liq ish birliklarini yaratish uchun trampolin bo'lib xizmat qiladi va talabalarni shaxsiy, ijodiy va faol o'quv dasturiga har tomonlama yondashishga jalb qiladi. Ular shu tariqa kurs kitobiga yangi muqobil taqdim etadilar.

Xulosa. Sun'iy intellektning insonlar hayotidagi ahamiyati va foydali jihatlarini hamda ekspert tizimlarining afzalliklari, xulosalari haqida yetarli ma'lumotlarni keltirdik, ushbu innovatsion texnologiyalardan talabalar ingliz tilini o'rganishda foydalangan holda, ayniqsa sun'iy intellektni samarali qo'llash natijasida ingliz tilini oson, tez va yuqori sifatlarda o'rganishlariga yaqindan ko'maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2012 yil 10 dekabr, T., 2012 yil No 1875.
2. Karimov I. A. Barkamol avlod –O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq, 1998. –b. 3-11.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 27 maydagi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi . 8 янв. 2018
4. Auerbach E.R. Competency-based ESL: One step forward or two steps back? // *Tesol Quarterly*. 1986. No20 (3). –P. 411 –415.
4. BRUMFIT, Christopher; MOON, Jayne and TONGUE, Ray, *Teaching English to Children from Practice to Principle*, Longman 1991, ISBN 0-17-556889-8.
5. Jeremy Harmer. *The Practice of English Language Teaching*, Longman, 2005
6. Khasanova, Gulsanam Khusanovna MAIN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF EDUCATION AND PROFESSIONAL TRAINING IN THE WORLD // *ORIENSS*. 2021. №Special Issue 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/main-trends-in-the-development-of-education-and-professional-training-in-the-world> (дата обращения: 05.01.2022).
7. Khasanova, G. K. "THE SUCCESS AND EDUCATION SYSTEM OF SOUTH KOREA AND JAPAN." *Наука сегодня: проблемы и пути решения [Текст]: материа* (2021): 94.
8. Хашимова С. On some features of teaching foreign language for students of non-philological areas at the initial stage. – 2019. – Евразийское Научное Объединение. – С. 334-338.
9. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10
10. Nasirova, S. A. (2020). CONCEPTS OF 中国 梦想” CHINESE DREAM” AND 类 命运 共同 “COMMUNITY OF THE ONE FATE OF HUMANITY”–A LINGUISTIC AREA. *Journal of Central Asian Social Studies*, 1(01), 05-14.
11. Abdullaevna, N. S. (2020). Lexical-semantic and cognitive specifics of political discourse (based on Si Jinping's speeches). *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1086-1092.
12. Nasirova, S. A., Hashimova, S. A., & Rikhsieva, G. S. (2021). THE INFLUENCE OF THE POLITICAL SYSTEM OF CHINA ON THE FORMATION OF SOCIAL AND POLITICAL TERMINOLOGY. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 10-17
- Bekmuratova U. B. “Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil.
13. Отабоева, М. Р. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / М. Р. Отабоева. — Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. — 2017. — № 4.2 (138.2). — С. 36–37. — URL: <https://moluch.ru/archive/138/39058/> (дата обращения: 27.04.2020)
- 14.N. Q. Xatamova, M.N.mirzayeva. “INGLIZ TILI DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL USULLAR” (uslubiy qo'llanma), Navoiy, 2006, 40 bet.
- M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. “CHET TILINI O'QITISHDA YORDAMCHI VOSITALARDAN FOYDALANISH”. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005
15. O'.Hoshimov, I. Yoqubov. “INGLIZ TILI O'QITISH METODIKASI” (o'quv qo'llanma) Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2003.
16. Rakhimov, M., Yuldashev, A., & Solidjonov, D. (2021). The role of artificial intelligence in the management of e-learning platforms and monitoring knowledge of students. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(9), 308-314.
17. Yuldashev, A. (2022). DEVELOPMENT OF ECONOMIC ACTIVITIES OF ENTERPRISES ON THE BASIS OF DIGITIZATION. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(3), 251-257.
18. Axrorjon, Y., Alijon, M., & Iqlima, A. (2022). Faol texnologiyalarni o'smirlar psixologiyasiga ta'siri. *Ta'lim fidoyilari*, 13(6), 263-266.
19. Yoldashev, A. E. O., Nishonqulov, S. F. O., & Yoldasheva, M. R. Q. (2021). TA'LIMDAGI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI. *Scientific progress*, 2(3), 806- 813.
20. Khasanova, G. Kh. The Functions of the Nonverbal Means in Dialogic speech// *Journal of Critical Review*. Vol 7, Issue 15, 2020. ISSN-2394-5125. – Pp.6174-6183. (№ 3; Scopus).